

HAYVONOT VA O'SIMLIK DUNYOSIDAN FOYDALANISH TARTIBINI BUZISH JINOYATINING OG'IRLASHTIRUVCHI HOLATLARINING JINOYAT-HUQUQIY TASNIFI

Akramova Marjona Oripovna

Navoiy viloyati Jinoyat ishlari bo'yicha

Nurota tuman sudi arxivariusi

marjonaakramova2001@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20155275>

Annotatsiya: Hozirgi globallashuv va ekologik inqiroz sharoitida hayvonot va o'simlik dunyosidan noqonuniy foydalanish, brakonyerlik, noyob turlarni yo'q qilish va tabiat resurslarini talon-taroj qilish jiddiy xalqaro va milliy miqyosda dolzarb muammoga aylangan, bu holat biologik xilma-xillikning qisqarishi, iqlim o'zgarishining kuchayishi, mamlakatning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda.

Ushbu tezisdagi Hayvonot va o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish jinoyatini og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilishining jinoyat-huquqiy tahlili, huquqiy tabiati hamda amaliy muammolari kompleks tahlil qilinadi. Og'irlashtiruvchi holatlarning tahlili ularni uch turga bo'lish orqali ya'ni subyekt bilan bog'liq (xavfli retsidivist, mansabdor shaxs, uyushgan guruh), qilmish usuli bilan bog'liq (mexanizatsiyalashtirilgan vositalar, taqiqlangan qurollar) va kelib chiquvchi oqibat bilan bog'liq (miqdoriy darajalar, Qizil kitobidagi turlar) kabi holatlar tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: og'irlashtiruvchi holatlar, jinoyat-huquqiy tasnif, uyushgan guruh, Qizil kitob, CITES, xavfli retsidivist, differentsiatsiya, profilaktika.

Hozirgi kunda hayvonot va o'simlik dunyosidan noqonuniy foydalanish dolzarb ekologik va kriminologik muammoga aylanib bormoqda. Bu holat nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyo miqyosida ekologik jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Birlashgan millatlar tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha idorasi (UNODC)ning "World Wildlife Crime Report 2024" hisobotiga ko'ra, yovvoyi tabiat bilan noqonuniy savdo yiliga taxminan 23 milliard AQSh dollarini tashkil etib, transmilliy uyushgan jinoyatchilik tarkibida to'rtinchi o'rinda turadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga ko'ra, "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida" [2] ekanligi belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagi konstitutsiyaviy normaning, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" (1992-yil 9-dekabr)gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" (yangi tahrir, 2016-yil 19-sentyabr)gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" (yangi tahrir, 2016-yil 21-sentyabr)gi qonunlari hamda shu sohadagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibning buzilishi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 202-moddasi bilan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Amaldagi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan Hayvonot va o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish (JK 202-modda)ning og'irlashtiruvchi holatlari quyidagicha nazarda tutilgan:

JK 202-moddasi 2-qismiga ko'ra, ov qilish va baliq ovlash yoki hayvonot dunyosining boshqa turlarini tutish qoidalarini buzish, kamyob va yo'qolib borayotgan hayvon turlarini tutishning yoxud yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning dorivor, ozuqaviy va manzarali (dekorativ) turlarini yig'ish yoki tayyorlashning belgilangan tartibini yoki shartlarini, xuddi shuningdek, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish:

- a) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan to'rt yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum qilib bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

JK 202-moddasi 3-qismiga ko'ra, o'sha qilmishlar:

- a) xavfli retsivist tomonidan;
- b) shaxsning o'z xizmat mavqeyidan foydalanib;
- v) yerda, suvda yoki havoda ishlatiladigan mexanizatsiyalashtirilgan vositalardan foydalanib;

g) taqiqlangan qurollardan yoki usullardan foydalangan holda (bundan elektr tokini, portlovchi, kimyoviy moddalarni yoki biologik preparatlarni qo'llash hollari mustasno);

- d) uyushgan guruh tomonidan;
- e) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;

j) O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan hayvonot yoki o'simlik dunyosi turlarini nobud qilgan holda sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

JK 202-moddasi 3-qismiga ko'ra, Elektr tokini, portlovchi, kimyoviy moddalarni yoki biologik preparatlarni qo'llagan holda ov qilish yoxud baliq ovlash, —

bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi [3].

Ma'lumki, og'irlashtiruvchi holatlar jinoyat huquqida ikkita vazifani bajaradi: birinchidan, jinoyatning xavflilik darajasini oshiruvchi holatlarni ifodalab, sudga adolatli jazo tayinlash uchun huquqiy asos yaratsa (differensiatsiya vazifasi), ikkinchidan, yanada xavfli jinoyatlardan potensial jinoyatchilarni tuyib turish (profilaktika vazifasini) bajaradi.

O'rganilayotgan ijtimoiy-xavfli qilmish uchun javobgarlikda nazarda tutilgan og'irlashtiruvchi holatlarni tahlil qilishda tizimli tahlil uchun asos bo'lishi inobatga olinib, ularni uch guruhga bo'lib tavsiflash maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi.

1. Subyekt bilan bog'liq og'irlashtiruvchi holatlar: xavfli retsivist, xizmat mavqeidan foydalangan holda, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib hamda uyushgan guruh tomonidan kabilardan iborat.

Hayvonot va o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish jinoyatining takroran sodir etilishi ham og'irlashtiruvchi holat ekanini hisobga olib, JK 202-moddasi 3-qismi "a" bandini "takroran yoki xavfli retsivist tomonidan" deb o'zgartirish taklifi beriladi.

2. Qilmish usuli bilan bog'liq og'irlashtiruvchi holatlar: yerda, suvda yoki havoda ishlatiladigan mexanizatsiyalashtirilgan vositalardan foydalanib, ta qiqlangan qurollardan yoki usullardan foydalangan holda, O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan hayvonot yoki o'simlik dunyosi turlarini nobud qilgan holda, elektr tokini, portlovchi, kimyoviy moddalarni yoki biologik preparatlarni qo'llagan holda kabilardan iborat.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi 1997-yil "Yo'qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to'g'risida"gi konvensiya (CITES)ga qo'shilgan. Konvensiyaning asosiy maqsadi – yovvoyi hayvonot va o'simlik dunyosi bilan xalqaro savdo ularning tirik qolishiga tahdid solmasligini ta'minlash bo'lib, bioxilma-xillikni muhofaza qilishda muhim rol o'ynaydi. CITES yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlarni haddan tashqari ekspluatatsiyadan himoya qiladi va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishga yordam beradi [4]. Shundan kelib chiqib, JK 202-moddasi 3-qismi "j" bandini "O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi hamda Yo'qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to'g'risidagi konvensiya (CITES)ga kiritilgan turlarni nobud qilgan holda sodir etilgan bo'lsa" tahririda bayon etilishi taklif beriladi.

Shuningdek, JK 202-moddasi 4-qismida elektr tokini, portlovchi, kimyoviy moddalarni yoki biologik preparatlarni qo'llagan qo'llagan holda ov qilish yoki baliq ovlash uchun – bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan, mazkur sanksiya JK 202-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan jazo tizimi bilan bir xil ekanligi qilmishning ijtimoiy xavfliligini yetarli darajada baholanmaganligini ko'rsatadi. Ushbu qism uchun nisbiy-muayyan sanksiya, ya'ni "yetti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish"ning nazarda tutilishi tavsiya qilinadi.

3. Oqibat bilan bog'liq og'irlashtiruvchi holatlar: ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda, juda ko'p miqdordagi zarar yetkazgan holda kabi holatlarda ifodalanadi.

Professor M.X.Rustambayev: "Ekologik jinoyatlarning obyektiv tomonini to'g'ri aniqlash ulardagi zararning haqiqiy miqyosini baholash uchun muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Zarar – nafaqat moddiy, balki ekologik yaxlidlik nuqtai nazaridan ham baholanishi lozim" [5] deb ta'kidlagan.

Darhaqiqat, amaldagi qonunchilik doirasida yetkazilgan zararni hisoblashda faqat hayvon yoki o'simlikning bevosita bozor qiymati — ya'ni uning tijorat bahosi yoki BHM koeffitsientlari asosida belgilangan miqdor hisobga olinadi, ekotizim xizmatlarining yo'qolishidan kelib chiqadigan bilvosita zarar esa hisob-kitobdan butunlay chetda qoladi. Holbuki, ekotizim xizmatlari tarkibiga urug'latish, havo va suvni tozalash, iqlimni tartibga solish, biologik zanjirning uzluksizligi kabi tabiatning insonga bepul ko'rsatadigan hayotiy ahamiyatli funksiyalari kirishi e'tiborga olinsa, zararni hisoblashda ushbu holatlarni ham inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiya huquqshunosligida ekologik jinoyatlar sohasidagi yirik mutaxassis O.L.Dubovik ta'kidlaganidek: “Og'irlashtiruvchi holatlarning samarali tizimi jinoiy javobgarlik differentsiatsiyasini ta'minlovchi asosiy mexanizm bo'lib, uning to'g'ri qurilmaganligi normaning profilaktik ta'sirini butunlay susaytiradi” [6].

Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur qilmish uchun belgilangan og'irlashtiruvchi holatlarni yanada takomillashtirish jinoyatni kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, ammo qonunchilikni takomillashtirish faqat normaning matnini o'zgartirish bilan cheklanmaydi, uni hayotga tatbiq etishning samarali mexanizmlari, sud amaliyotini yo'naltiruvchi Plenum qarorlari va raqamli monitoring tizimlari zarur. Faqat shundagina 202-modda O'zbekistondagi hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilishning haqiqiy huquqiy qalqoniga aylanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. UNODC — United Nations Office on Drugs and Crime. World Wildlife Crime Report 2024. — Vienna: UNODC, 2024. URL: unodc.org
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [2023-yil 30-apreldagi umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrir]. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi [2026-yil 20-martgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan] – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2026-yil. 194- 195 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi: CITES Konvensiyasi nima? 2025-08-07 10:00:00. <https://gov.uz/oz/eco/news/view/76152>
5. M.X.Rustambayev. Jinoyat huquqi. 2-jild. – Toshkent: TDYI nashriyoti, 2011.
6. О.Л.Дубовик. Экологические преступления: Комментарий к глава 26 Уголовного кодекса Российской Федерации. – М: Спарк. 1998.